

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Gruziyaning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor Elchisi David Kotaria tashrif buyurdi hamda institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashdi.

□Uchrashuvda Nodirbek Sayfullayev elchi janoblarining tashrifidan mamnun ekanligini bildirib, uni institut tarixi, ilmiy va ijodiy salohiyati, bugungi kunda amalga oshirilayotgan o'quv-ijodiy jarayonlar, ilmiy yo'nalishda bo'layotgan o'zgarishlar, umuman, institut hayoti bilan batafsil tanishtirib o'tdi.

□O'z navbatida, David Kotaria o'zbek san'ati va madaniyatiga qiziqishi va hurmati baland ekanligini alohida qayd etib o'tdi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan hamkorlik qilishdan mamnun bo'lishini ta'kidladi.

□Shuningdek, samimiy muloqot davomida O'zbekiston va Gruziya o'rtasidagi madaniy aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligi, o'zbek milliy musiqasi, raqslari va hunarmandchiligi Gruziyada katta qiziqish uyg'otishi, xuddi shuningdek, gruzin xalq qo'shiqlari va raqslari O'zbekistonda ham mashhurligi, ikki mamlakat o'rtasida amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi keng ko'lamli hamkorlik doirasida madaniy aloqlarga ham katta e'tibor qaratilayotgani qayd etildi hamda

kelgusida institut ijodiy jamoasining Gruziyadagi sohaga oid oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatishi va ushbu mamalakatga gastrol safarlarini tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Shundan so'ng Elchi hamda «Megobroba» Gruziya milliy madaniyat markazi vakillari rektor hamrohligida O'quv teatrida bo'lib o'tgan 4-bosqich "Musiqali teatr aktyorligi" ta'lim yo'nalishi talabalarining gruzin adibi Nodar Dumbadzening "Men, buvim, Iliko va Illarion" romani asosida sahnalashtirilgan "Guriyaliklar" musiqali komediyasi namoyishida ishtirok etishdi.

Ushbu spektakl lirik-komediya janrida sahnalashtirilgan bo'lib, voqealar yigirmanchi asrning o'rtalarida bo'lib o'tadi. Ammo unda ko'tarilgan mavzu bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Spektakl qishloqda tug'ilib o'sgan yosh yigit – Zurikoning katta hayotga qadam qo'yish arafasida duch keladigan to'qnashuvlari, ziddiyatlar va intilishlari haqida hikoya qiladi.

Ushbu spektakl mehmonlar hamda tomoshabinlarda iliq taassurot qoldirdi.

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
rektori, professor Nodirbek
Sayfullayev rahbarligida**

institut Kasaba uyushmasi qo'mitasining hisobot-saylov yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilish avvalida Nodirbek Sayfullayev Kasaba uyushmasi institutda xodimlar va professor-o'qituvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish joylarida xavfsizlikni ta'minlash, muammolarni hal qilish borasida o'z so'zi va ovozigaga ega bo'lgan muhim bo'g'in bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

Yig'ilishning kun tartibida institut Kasaba uyushmasi qo'mitasining 5 yil mobaynidagi faoliyati yakunlari va xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida kelgusidagi vazifalari, institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi taftish komissiyasining hisoboti, institut kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va tarkibini hamda taftish komissiyasi raisi va tarkibini, shuningdek, O'zbekiston madaniyat, sport va turizm xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent shahar birlashgan qo'mitasining hisobot-saylov konferensiyasiga delegatlar va vakil saylash kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Mazkur masalalar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan qizg'in muhokama qilinib, kelgusi rejalar yuzasidan bir qancha taklif va tavsiyalar bildirildi.

Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi tarkibiga quyidagi nomzodlar saylandi:

Baxtiyor Yuldashev – O'quv-uslubiy boshqarmasining talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i

Rustamov Vahobjon Qiyomovich – «Madaniyat va san'at menejmenti» kafedrasini professori v.b.;

Karimov Jahongir Ibratovich – Yoshlar bilan ishlash,

ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i;
Ahmedov Farrux Farxodovich – «Registrator ofisi» o'quv
jarayonlarini muvofiqlashtirish menejeri;
Yusupova Rahima Kasimova – «Madaniyat va san'at menejmenti»
kafedrası dotsenti v.b.;
Rasulov Rufat Sheraliyevich – institut Talabalar turar joyi
komendanti
Muminxodjayeva Lyudmila Nigmatovna – «Kutubxona-axborot
faoliyati» kafedrası katta o'qituvchisi;
Bachisova Sharafat Narmuratovna – Xodimlar bo'limi
mutaxassisi,
Mavlonov Rustam Mavlonov Rustam Abdusalomovich – institut bosh
muhandisi.

Institut kasaba uyushmasi raisligiga nomzodlar uchun ochiq
ovoz berildi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra O'quv uslubiy boshqarmasining
Talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i Yuldashev Baxtiyor
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kasaba
uyushmasi qo'mitasi raisligiga qayta saylandi.

**Bugun O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
rektori, professor Nodirbek
Sayfullayev rahbarligida
navbatdagi yig'ilish bo'lib**

o'tdi.

✓Yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosarlari, kafedra mudirlari va tyutorlar ishtirok etdi.

Yig'ilishni ochib berar ekan Nodirbek Sayfullayev joriy yilning 13-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Olimpiya va paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish, aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi hamda 14-fevral kuni o'tkazilgan mamlakatimiz yoshlari bilan ochiq muloqotida belgilagan vazifalar ijrosi borasida to'xtalib, bugungi kunda talaba-yoshlarga sifatli ta'lim berish barobarida, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, turli to'garaklarga jalb etish institutda faoliyat olib borayotgan har bir xodimning asosiy vazifa bo'lishi, bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirish, ayniqsa, yoshlar bilan ishlash tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning mas'uliyatini yanada oshirish lozimligini ta'kidladi.

Shuningdek, ushbu yig'ilishlarda hamda umuman yurtimizda yosh avlodga yaratib berilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlar tog'risida talaba-yoshlarga ko'proq ma'lumot berish, tashkil etilayotgan turli tanlovlar va sport musobaqalarida talabalarning ishtirokini kengaytirish, institut miqyosida ham sport va boshqa intellektual tanlovlarni muntazam o'tkazib borish, talaba-yoshlarning kamida 50 fozini sportga jalb etish zarurligini ta'kidladi.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashevning talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ma'naviyatini

yuksaltirish borasida institutda amalga oshirilayotgan ishlar borasida bergan ma'lumoti qizg'in muhokama qilindi. Xususan, haftaning har shanba kunini institutda sport kuni deb e'lon qilindi hamda ushbu kunda ko'plab sport musobaqalari tashkil etish, unda nafaqat talaba-yoshlar, balki ishchi xodimlar ham ishtirok etishi belgilandi.

Institut talabalarining ma'naviy tarbiyasi va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularni yot g'oyalardan asrash har birimizning vazifamizga aylanishi shartligi, yoshlarning mafkuraviy xavfsizligini ta'minlash, ularni dardiga malham bo'lib, muammosini hal qilib, turli g'oyaviy xurujlardan asrash, zararli axborotlardan himoya qilish ishlarini kuchaytirish, ayniqsa, giyohvandlik va psixotrop moddalarga qaramlik kabi salbiy illatlarning oldini olish masalasi ham muhokama qilinib, mas'ullarga bu borada yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlarini yanada jadalashtirish topshirig'i berildi.

Yig'ilishda, shuningdek, 2025-yil uchun rejalashtirilgan maqsadli investitsiyalar va grant loyihalarini amalga oshirilishi, xalqaro hamkorlik bo'yicha xorijiy universitetlar bilan imzolangan memorandumlar, tuzilgan «Yo'l xarita» larida belgilangan vazifalar ijrosining bajarilishi, 2024/2025-o'quv yili kuzgi semestr bo'yicha professor-o'qituvchilarning HEMIS platformasida o'quv mashg'ulotlarini rasmiylashtirishi hamda fakultet va kafedralarning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini o'rganish natijalari, to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar tomonidan to'lovlar amalga oshirilish holati, ijro intizomi kabi masalalar muhokama qilindi.

□□Ushbu masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi hamda barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev tashabbusi bilan "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasidan "Madaniyatshunoslik va san'atshunoslikning nazariy-konseptual masalalari" nomli metodologik seminar o'tkazildi.

#jarayon

Seminar avvalida Nodirbek Sayfullayev har bir sohaning taraqqiy etishi uchun nazariy asos zarur ekanligini, shuning uchun ham ilmiy salohiyatni rivojlantirish, qilinayotgan ilmiy ishlarni amaliyotga tadbiq etish nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanishini alohida qayd etib, "bugun jamiyatimizda "Uchinchi Renessans" poydevorini qurish bo'yicha jadal ishlar amalga oshirilayotgan ekan, tabiiyki, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jamoasi ham bu yakdil maqsadga hamohang tarzda ijodiy ishlar bilan bir qatorda ilmiy

faoliyatda ham katta yutuqlarga erishishi, uning zaminini qurishi va rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olishi zarur!" – dedi.

Shundan so'ng San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası professori, tarix fanlari doktori Abduhalil Mavrulov "Madaniyat fenomenini o'rganishning o'ziga xosligi" mavzusida ilmiy ma'ruza qildi.

Ma'ruzada ta'kidlanganidek, "Madaniyat insonning intellektual va ruhiy faoliyatini tartibga keltiruvchi, uni jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muhim hodisa hisoblanadi. G'arbda madaniyatning ustuvor vazifasi sifatida ma'rifatlilik, bilimlilik, aql masalasi e'tirof etilsa, Sharqda ko'proq tarbiya, ma'naviyatlilikka e'tibor berilgan".

Shuningdek, Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Avloniy kabi bir qancha mutafakkirlarning madaniyat haqidagi fikrlaridan iqtiboslar keltirildi.

Madaniyatning ijtimoiy safarbarlik funksiyasi bugungi kunda ayrim yoshlarimizning virtual dunyoga kirib ketishi, uning natijasida, jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonining buzilishi, fuqarolarda individualistik dunyoqarashning kuchayib borayotgan bir paytida o'ta muhim o'ringa ega ekanligi ham alohida qayd etildi.

Ma'ruzaga "Madaniyat insonning yaratuvchilik faoliyatini tartibga soladigan, shaxs ma'naviy-madaniy kamolotiga, ruhiy-aqliy hayotiga ma'no-mazmun beradigan, uning maqsad-muddaolarini jamiyat ijtimoiy mo'ljali bilan uyg'unlashtirishga yordam beradigan fenomen ijtimoiy hodisa hisoblanadi". – deya xulosa qilindi.

Mazkur mavzu va ma'ruza yuzasidan qizg'in savol-javob va muhokama bo'lib o'tdi

Seminar yakunida Nodirbek Sayfullayev bunday formatdagi

seminarlar muntazam tashkil etilishini hamda kelgusida institutda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning sifat darajasiga yanada qat'iy e'tibor qaratilishini ma'lum qildi.

“Muhammad Yusuf Vatan kuychisi”

Bugun yurtimiz bo'ylab O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 71 yilligi munosabati bilan ko'plab ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tomonidan Adiblar xiyobonida joylashgan shoir haykali poyida “Muhammad Yusuf Vatan kuychisi” deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir avvalida shoir haykali poyiga gulchambarlar qo'yilib, hurmat bajo keltirildi.

Shundan so'ng O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, shoirning rafiqasi Nazira as-Salom va boshqalar so'zga chiqib, Muhammad Yusuf hayoti va ijodining ibrat bo'larli jihatlari, uning insoniy fazilatlari hamda Muhammad Yusuf ijodining o'zbek she'riyati tarixidagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritdi hamda unga bog'liq bo'lgan xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

Shundan so'ng institutda ta'sis etilgan “Muhammad Yusuf” ko'krak nishoni o'z egalariga taqdim etildi.

Ular bilan tarnishing:

O'zbek va jahon filologiyasi kafedrasi mudiri, dotsent

Ma'rufova Zulfiya Nabiyeвна, Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti dekani, dotsent Xidirova Kamola Sodikovna, "Vokal" kafedrası dotsenti Sharipov Azamat Shonazarovich, Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i Tuyg'unov Doniyor Mirzayevich, "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrası katta o'qituvchisi Kozimova Zumriniso Ismoilovna, Xalq ijodiyoti fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li, "Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik" mutaxassisligi 2-bosqich tayanch doktoranti Qolqanotov Asilbek Nazarbay uli, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qorako'l tuman bo'linmasining Ma'rifat targ'ibotchilari Eshshiyev Bobomurod Omonovich va Subhonova Ruqiya Usmonovna, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi Nabiyeva Malika Orif qizi.

Shundan so'ng tadbirning badiiy qismiga navbatberildi. Unda institut professor-o'qituvchilari tomonidan Muhammad Yusufning she'rlaridan namunalar o'qildi hamda uning so'zlari asosida yaralgan qo'shiqlardan namunalar ijro etildi.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirining birinchi
o'rinbosari Avazxon
Tadjixanov raisligida
navbatdagi onlayn (ZOOM)

platformasi orqali) yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda Madaniyat vazirligi tegishli bo'lim boshliqlari hamda davlat teatrlari direktorlari va bosh rejissyorlari bilan birgalikda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev hamda prorektorlar, Teatr san'ati fakulteti dekani va tegishli kafedra mudirlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 22-noyabrdagi 399-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan teatrlar bilan ta'lim tashkilotlarining uzviy hamkorligini yo'lga qo'yish, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga maqsadli qabul kvotalari teatrlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olib belgilash, institutning 3 va 4-bosqich bakalavr hamda magistratura talabalarining haftada kamida ikki kun teatrlarda amaliy mashg'ulotlar o'tashini yo'lga qo'yish va boshqa bir qator masalalar muhokama qilindi.

Dastlab Avazxon Tadjixanov "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror sohaning rivoji uchun ko'plab imkoniyatlar taqdim etganini alohida ta'kidlab o'tdi. Shu bilan birga, bugungi kunda nafaqat teatrlarda balki barcha madaniyat muassasalarida, oliy ma'lumotga ega bo'lgan malakali yosh mutaxassislariga ehtiyoj juda yuqori ekanligini, buning yechimi esa, oliy ta'lim muassasalarida, xususan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olayotgan yosh kadrlarni amaliyotga va keyingi bosqichda ishga jalb qilish, ularni mehnat bozoriga tayyor kadrga sifatida borishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish ekanligini qayd etdi.

Nodirbek Sayfullayev bugungi kunda Davlatimiz Rahbari tomonidan oliy ta'lim sohasi vakillari oldiga qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri bu dual ta'lim ekanligini, bunda talaba amaliyot yoki teatrlarda tashkil etilgan o'quv jarayonlarida ishtirok etishi bilan bir qatorda, kamida 0.25 shtat birligida faoliyat olib borishi lozimligi, bu borada teatrlardagi bo'sh vakant o'rinlarga yuqori kurs talabalarni jalb etilsa, ular institutni tamomlagunga qadar mutaxassis sifatida shakllanishi, mehnat bozoridagi talablarga to'liq javob beradigan kadr bo'lib yetishishilariga zamin yaratishini ta'kidladi. Shuningdek institut bilan teatrlar hamkorligini yanada kuchaytirish borasida ham fikrlarini bildirib o'tdi.

Yig'ilish ochiq muloqot tarzida davom etdi hamda teatr direktorlari ham mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohaza va takliflarini bayon qildi.

**Nodirbek Sayfullayev ana
shunday iste'dodli
talabalardan "Xush kayfiyat"
respublika ko'rik-tanlovi
sovrindori Teatr san'ati
fakulteti Musiqali teatr
aktyorligi ta'lim yo'nalishi**

sirtqi ta'lim bitiruvchi kurs talabasi Bahodir Fozilov bilan uchrashdi.

Hech sir emaski, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ayni paytda o'z ijodi bilan tanilib ulgurgan hamda respublika va xalqaro tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lgan bir qancha iqtidor egalari tahsil olishmoqda.

Bugun institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev ana shunday iste'dodli talabalardan "Xush kayfiyat" respublika ko'rik-tanlovi sovrindori Teatr san'ati fakulteti Musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishi sirtqi ta'lim bitiruvchi kurs talabasi Bahodir Fozilov bilan uchrashdi.

Uchrashuvda institut rektori Bahodir Fozilovni "Xush kayfiyat" ko'rik-tanlovida faxrli 2-o'rin sohibi bo'lgani bilan yana bir bor muborakbod etib, kelgusi ijodiga ulkan zafarlar tiladi.

Shuningdek, kelajakda yoshlar tarbiyasiga oid, ularni ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan kontentlar yaratish, monospektakllar sahnalashtirish lozimligini, institut rahbariyati uning yangi ijodiy loyihalarini qo'llab-quvvatlashga doimo tayyor ekanligini ma'lum qildi.

O'z o'rnida, talaba ham bunday e'tibordan mamnun ekanligini bildirib, kelgusida o'z ijodida, albatta, bu tavsiyalarga amal qilishini aytib o'tdi.

Suhbat jarayonida Bahodir Fozilov institutning "O'quv teatrida" faoliyat yuritish istagini bildirdi hamda uning bu istagi ham qo'llab-quvvatlandi.

**Nodirbek Sayfullayev
“Dramatik teatr va kino
san’ati” ta’lim yo’nalishi 4-
bosqich talabalari tomonidan
“Aktyorlik mahorati” fanidan
diplom ishi sifatida
sahnalashtirilgan “Halala”
spektakli namoyishida
ishtirok etdi.**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev “Dramatik teatr va kino san’ati” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabalari tomonidan “Aktyorlik mahorati” fanidan diplom ishi sifatida sahnalashtirilgan “Halala” spektakli namoyishida ishtirok etdi.

Rashod Nuri Guntekinning «Halala» komediyasi turk adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni kulgu orqali yetkazib, tomoshabinni chuqur fikrlashga undaydi.

Asarni kurs rahbari, O‘zbekiston xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Nodira Mahmudova sahnalashtirgan bo‘lib, “Aktyorlik mahorati” o‘qituvchilari Jamshid Sobirov, Qaxramon Madrimov, Fozil Nazarov, Feruza Karayeva, Sahna nutqi fani o‘qituvchisi san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Go‘zal Xoliqulova, Plastika va pantamima fani o‘qituvchisi katta o‘qituvchi Sador Mannonov, Sahna harakati fani o‘qituvchisi katta o‘qituvchi Rahimjon Do’sanov, Raqs fani o‘qituvchisi O‘zbekistonda xizmat

ko'rsatgan artist, dotsent Narziddin Shermatov.

Spektakl soha mutaxassislari tomonidan iliq kutib olinib, professional rejissura, zamonaviy uslubdagi aktyorlik ijrosi, sahna madaniyati, ssenografiya, musiqa va yoritish bezagi alohida e'tirof etildi.